

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI STEAM BAHOLASH TIZIMI ORQALI RIVOJLANTIRISH

**Xamidova Diyora Rustam qizi**

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali  
Maktabgacha ta'lim va pedagogika kafedrasida o'qituvchisi.

[diyoraxamidova52@gmail.com](mailto:diyoraxamidova52@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini STEAM baholash tizimi orqali rivojlantirish bilan bir qatorda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarda kreativlik tushunchasini shakllantirish.

**Kalit so'zlar:** kreativlik, kreativ kompetentlik, ijod, iroda, diqqat, tafakkur ijodkorlik. Innovatsiya kompetentlik. STEAM, PISA, PIRLS. TIMSS. TALIS

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается развитие творческой активности учащихся начальных классов посредством системы оценивания STEAM, а также качество обучения и формирование понятия творчества у учащихся.

**Ключевые слова:** творчество, творческая способность, творчество, воля, внимание, мышление, творчество, инновация, компетентность. STEAM, PISA, PIRLS. TIMSS. TALIS

### ABSTRACT

In this article, along with the development of the creative activity of primary school students through the STEAM assessment system, the quality of education and the formation of the concept of creativity in students are discussed.

**Key words:** creativity, creative competence, creativity, will, attention, thinking, creativity. Innovation is competence. STEAM, PISA, PIRLS. TIMSS. TALIS

### KIRISH.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va

xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Bizga ma'lumki zamon o'sib borayotgan bir davrda o'quvchilarni aql idrokli qilib tarbiyalash, ularni komillikga yetaklash, bilim saviyasini oshirish maqsadida oqituvchilar dars jarayonlarini turli xil metodlar orqali olib bormoqdalar. Shu maqsadda turli xil darsliklar, o'quv qo'llanmalari joriy etilgan.

Hozirgi kunda o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish maqsadida zamonaviy STEM tizimidan foydalanish va shu orqali o'quvchilarda o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi. Bizga ma'lumki ijodkorlikning ilk ko'rinishini bolalarda bog'cha davridan boshlab ko'zlatishimiz mumkin. Ular maktab davriga yetganida esa o'zlaridagi ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishadi.

### **NATIJALAR**

Aytishimiz mumkinki an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilishda foydalanish mumkin, STEM yondashuvi esa bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarida nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkonini beradi. Boshlang'ich ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanishdan asosiy maqsad darslar jarayonida fanlararo bog'lanishni tashkil etish, o'quvchilarni fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirishdir. Ushbu jarayon o'quvchilarda ijodkorlik, ijodiy faoliyatni rivojlantiradi va ta'lim sifatini oshiradi. STEAM texnologiyasi an'anaviy ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni taminlab beradi. O'quvchi o'zida kreativ yani nostandart fikrlash va o'zidagi ijodiy qobiliyatni shakllantirib boradi. Kreativlik tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, bunda yaratuvchanlik tushuniladi. Nafaqat yaratuvchanlik balki inson o'z hayolij ijodiy faoliyatini amalyotda sinab ko'radi, natijada unda ijodkorlik, ijodiy qobiliyat, ijodiy faoliyat vujudga keladi. Inson tomonidan yaratilgan har bir buyum yoki kashfiyot bu ijodkorlikning bir ko'rinishidir. Ijodkorlik qobiliyatini biz bolalarda kichik bog'cha davridanoq ko'rishimiz mumkin. Usha bolaning bog'chada rasmlarni o'zlari istagan ranga bo'yashlari ham ijodiyotdir. Chunki bola usha bo'yayotgan narsasni hayolan shu rangda tasavvur qiladi va uni o'zicha kashf etadi.

O'quvchilarda kreativlikni shakllantirish, yangicha qarash, yangi fikrlarni vujudga kelishi ulardagi ijodiy faoliyatni zamonaviy yondashuvidir. O'quvchilarda kreativlikni shakllanib borishi bu ta'lim tizimining rivojlanishidir. Fan va talim bir ma'noga ega bo'lgan tushuncha bo'lib, bir maqsad ostida faoliyat yuritishdir.

O'quvchilarda kreativlik, yaratuvchanlik shakllanib borar ekan ta'lim jarayoni ham jadallashib boraveradi. Inson tamolidan yaratilgan har bir kashviyot ijodkorlikning bir ko'rinishidir.

Ijodkorlik ham ta'lim tizimining bir negizidir. O'quvchilarda kreativlikni shakllanishi ilm fanning rivojlanishidir. Ta'lim tizimidagi yangiliklar ham aynan yosh avlodni kelajakda yetuk komil inson bo'lib, yurtimiz ravnaqini yo'qori darajalarga ko'tarishdir. Yosh avlod qanchalik ko'p bilimga ega bo'lsagina nafaqat ta'lim shu bilan birgalikda taraqqiyot ham rivojlanib boraveradi. Fan va talim yurt ravnaqining asosidir. Ta'lim tizimining rivojlanishi, yangicha fan dasturlarining joriy qilinishidan asosiy maqsad o'quvchilarni bilim doirasini kengaytirishdir. Hozirgoi kunda barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifani bajarish, asosan pedagoglarga bogliq boladi. Shu maqsadda yoshlarni bilim olishga katta etibor qaratish lozimdir.

STEM yondashuvi ilk bor Amerikada ishlab chiqilgan. Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. Bugungi kunda o'quvchilarni bilim saviyasini oshirish ularda ijodkorlik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish va shu bilan birgalikda ta'lim sifatini rivojlantirish maqsadida turli xil baholash dasturlaridan keng foydalanib kelinmoqda. Jumladan. PISA -15 yoshli o'quvchilarning savodxonligi va kompetensiyasini baholovchi xalqaro dastur bo'lib, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Unda o'quvchilarning bilim sifati o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha monitoring qilinadi va 1000 ballik tizimda baholanadi. Ushbu xalqaro dastur 1997 yili ishlab chiqilib, 2000 yilda ilk marotaba amaliyotda qo'llangan. Dastur ko'magida turli davlatlar ta'lim tizimidagi o'zgarishlar aniqlanadi, solishtiriladi, baholab boriladi. Dasturning asosiy maqsadi o'quvchilarni bilim saviyasini oshirishdir.

PISA tadqiqoti monitoring tadqiqoti bo'lib, u turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aniqlash va solishtirish, ta'lim sohasidagi strategik qarorlar samaradorligini baholash imkonini beradi.

Bilamizki PISA dasturining bir necha asosiy yo'nalishlar mavjud

- **O'qish savodxonligi**
- **Matematik savodxonlik**
- **Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi**

PISA baholash ta'limiming amaliy ahamiyati, o'quvchilarni fanlardan savodxonligini baholashga xizmat qiladigan xalqaro baholash dasturi bo'lib, olingan bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, oqilona qaror chiqarish, mustaqil fikrlash, dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan.

## MUHOKAMA

Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to’g’risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi:

**PIRLS**-boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matni o‘qish va tushunish darajasini baholash;

**TIMSS** 4- va 8-sinf o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;

**TALIS** rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish;

PIRLS – (inglizcha – Progress in International Reading Literacy Study – matni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot ) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlarni boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.

PIRLS yosh o‘quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o‘qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma’lumot olish va ulardan foydalanish uchun o‘qishdir. Bundan tashqari, PIRLS o‘qish maqsadlarining har birida to‘rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni topish, to‘g‘ridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish, g‘oyalar va axborotni talqin qilish va uyg‘unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

## XULOSA

Demak xulosa qilib aytishimiz mumkinki boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyati, har qanday ta'lim vazifasini hal qilishda uning tashabbuskorligi, ixtirochiligi, yaratuvchanligini mustaqilligini namoyon etishi mumkin. STEAM texnologiyasi orqali biz o‘quvchilarni ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishimiz va ularda kreativlikni oshirishga erishamiz. Ijodkorlik va o‘rganish jarayonini o‘zaro bog‘lab, odatda ijodiy va ijodiy shaxsning xarakterli xususiyatlari sifatida aniqlangan barcha tinglovchilarning fazilatlarini va moyilligining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga hissa qo‘shadigan bunday sharoitlarni yaratish haqida gapirish kerak.

Bilamizki STEAM - ta'limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo'lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotiga va matematikaga integratsiya qilish yotadi.

Kreativ kompetentlik o'quvchilarning egallayotgan bilimlarini mustahkamligi va mukammalligini ta'minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzlaksiz ta'lim
2. Epifani D.B. Ijodkorlik psixologiyasi. Darslik. Foyda. - M.: Akademiya, 2002.- 320s.
3. Levin, V.A. Ijodkorlikni tarbiyalash. - Tomsk: Peleng, 1992 yil
4. 1. Uzlaksiz ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolar|| Ilmiy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDU nashri.
5. 2.F.Zakirova va boshq.Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'ltanma, T.: OO'MTV, 2010. – 57b.
6. 3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)